CLIL ASOSIDAGI MATEMATIKA BAHOLASHIDA TIL-TA’SIR INDEKSI (LII): O‘ZBEKISTON KONTEKSTIGA MOSLASHTIRILGAN YANGI DIAGNOSTIK KO‘RSATKICH TAKLIFI

Turg‘unova Mohichehra Xabibullayevna

Annotatsiya. Ushbu tezisda o‘quvchi ingliz tilidagi matematik testda past ball olsa, buning sababi nima - u matematikani bilmayaptimi yoki ingliz tilidagi savolni tushunmayaptimi? savoliga jaavob topish va til-ta’sir indeksi deb nomlangan yangi ko‘rsatkich taklif qilinadi. Unga ko’ra, bir xil matematik mazmunga ega, lekin til jihatidan murakkabligi turlicha bo‘lgan ikkita test shakli tuziladi, ular orasidagi ball farqi esa foiz ko‘rinishida hisoblanadi. Shu farq qanchalik katta bo‘lsa, o‘quvchining qiynalishida til omili shunchalik ko‘p rol o‘ynayotgan bo‘ladi. Tezisda LII formulasi, uni hisoblash yo‘li va natijalarni talqin qilish uchun oddiy jadval keltirilgan. Bu nazariy-metodik ish bo‘lib, ko‘rsatkichning real sinfda qanchalik ishonchli ishlashi keyingi bosqichda tekshirilishi kerak.

Kalit so‘zlar: CLIL texnologiyasi, konstruktga aloqasiz o‘zgaruvchanlik, lingvistik modifikatsiya, Til-ta’sir indeksi, matematik baholash, baholash validligi.

So‘nggi paytlarda O‘zbekistonda CLIL asosida fan o‘qitish ya’ni matematika, informatika, tabiiy fanlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ingliz tilida berish amaliyoti kengayib bormoqda. Bu, albatta, davlat siyosati darajasida ham qo‘llab-quvvatlanayotgan jarayon. Lekin amaliyotga yaqinroq nazar tashlasak, bitta noqulay holat ko‘zga tashlanadi. Bunda o‘qituvchi matematik testni ingliz tilida tayyorlaydi, o‘quvchi esa past ball oladi. Bu uchun kki xil ehtimol bor: yo bola matematik mazmunni tushunmagan, yoki mazmunni tushungan-u, savol matnidagi murakkab gap tuzilishi yoki notanish so‘z uni chalg‘itgan. Ana shu ikkalasini bir-biridan ajrata olmaslik test o‘lchov nazariyasida “konstruktga aloqasiz o‘zgaruvchanlik” deb ataladi. Testda o‘lchanishi kerak bo‘lgan narsaga umuman aloqasi bo‘lmagan bir omil natijaga aralashib ketadi[1]. Aslida bu muammo yangi kashfiyot emas AQSh va Yevropaning ko‘p tilli maktablarida ingliz tilini ikkinchi til sifatida o‘rganayotgan bolalar uchun bu masala o‘ttiz yildan buyon jiddiy o‘rganilib kelinmoqda. Masalan, Xalqaro tadqiqotchilardan Abedi va Lord o‘tkazgan tadqiqotda matematik savollarning tilini

soddalashtirilgach, ELL o‘quvchilarning natijasi sezilarli darajada oshgani, ona tili ingliz bo‘lgan bolalarniki esa deyarli o‘zgarmagani aniqlangan[2]. Boshqacha aytganda, tilni soddalashtirish matematikani osonlashtirmaydi. U shunchaki tilga bog‘liq to‘siqni olib tashlaydi. Shaftel va hamkasflari esa savol matnidagi uzun gaplar, passiv qurilmalar kabi xususiyatlar bilan o‘quvchilar natijasidagi tafovut orasida statistik bog‘liqlik borligini ko‘rsatib berishgan[3]. Muammo shundaki, bu ishlarning barchasi ELL kontekstida ya’ni bolaning ona tili emas, o‘qish tili ingliz bo‘lgan holatda qilingan. CLIL esa aksincha holat: bola o‘z ona tilida gaplashadi. Lekin fan unga ataylab chet tilida o‘rgatiladi. Bu farqli kontekst uchun hali hech kim aniq o‘lchov vositasi taklif qilmagan, va aynan shu joyda bizning ishimiz boshlanadi.

Taklif qilinayotgan g‘oya unchalik murakkab emas. Bir xil matematik masala ikki xil ko‘rinishda tayyorlanadi: birinchisi - Standart-til shakli (Form S), ya’ni murakkabroq, tabiiy ingliz tilidagi versiya; ikkinchisi - Soddalashtirilgan-til shakli (Form L), unda gaplar qisqartirilgan, notanish so‘zlar almashtirilgan, lekin sonlar va to‘g‘ri javob ikkalasida ham bir xil qoladi. Shu ikki formani bir xil o‘quvchiga berib, natijalarini solishtirsak, farq faqat tilga bog‘liq bo‘lishi kerak. Chunki matematik mazmunning o‘zi o‘zgarmagan. Bu farqni son ko‘rinishida ifodalash uchun LII quyidagicha hisoblanadi: LII = (Form S balli − Form L balli) / Maksimal ball × 100%. Agar LII katta chiqsa, demak bola soddalashtirilgan tilda ancha yaxshi natija ko‘rsatgan. Ya’ni asosiy to‘siq til bo‘lgan. Agar LII nolga yaqin bo‘lsa, tilni soddalashtirish natijani deyarli o‘zgartirmagan, demak muammo aynan matematik tushunchada. Bu mantiq S. Messikning konstrukt validligi haqidagi klassik nazariyasiga tayanadi, unda aynan shu turdagi “noto‘g‘ri” o‘zgaruvchanlikni aniqlash muhim masala sifatida ko‘rsatilgan[1].

Amaliyotda foydalanish uchun quyidagi shartli chegaralar taklif etiladi. Agar LII 10 foizdan kam bo‘lsa, o‘qituvchi bolaga birinchi navbatda matematik mazmunni qayta tushuntirishi kerak. 11-25 foiz oralig‘ida bo‘lsa, ehtimol ham til, ham fan bo‘yicha biroz yordam kerak bo‘ladi. 26 foizdan yuqori chiqsa esa, bolaning matematik bilimi aslida yomon emas, u shunchaki tilni tushunmayapti. Demak, avvalo lug‘at va o‘qish ko‘nikmalariga e’tibor qaratish kerak. Shuni darhol aytib qo‘yish kerakki, bu foiz

chegaralari hozircha faqat nazariy taxmin, aslida ular qanday bo‘lishi kerakligini faqat real sinfdagi ma’lumotlar orqali bilib olish mumkin.

To‘g‘risini aytganda, “bir xil mazmunni ikki xil tilda test qilish” g‘oyasining o‘zi butunlay yangi emas. Xorijda bu yo‘l allaqachon sinalgan[4]. Lekin bu yerda ikkita jihat yangi: birinchidan, bu metodologiya ilk marta CLIL sharoitiga ya’ni fan chet tilida o‘qitilayotgan holatga moslashtirilyapti, ikkinchidan, natija endi mavhum tushuncha emas, balki aniq foiz ko‘rinishidagi LII ko‘rsatkichi va unga bog‘liq pedagogik tavsiyalar shaklida taqdim etilyapti. Bu, albatta, o‘qituvchi uchun amaliy foyda beradi. Endi u bolani “zaif o‘quvchi” deb umumiy tamg‘alash o‘rniga, aniq qaysi tomondan yordam kerakligini bilib olishi mumkin. Shu bilan birga, halol aytish kerak. Bu hozircha faqat nazariy taklif, uning haqiqatan ishlashini faqat real sinflarda sinab ko‘rgandan keyin bilib bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Messick S. Validity // Educational Measurement (3rd ed.) / Ed. by R.L. Linn. - New York: American Council on Education & Macmillan, 1989. - P. 13-103.

2. Abedi J., Lord C. The language factor in mathematics tests // Applied Measurement in Education. - 2001. - Vol. 14, No. 3. - P. 219-234. - https://doi.org/10.1207/S15324818AME1403_2

3. Shaftel J., Belton-Kocher E., Glasnapp D., Poggio J. The impact of language characteristics in mathematics test items on the performance of English Language Learners and Non-ELL students // Educational Assessment. - 2006. - Vol. 11, No.

2. - P. 105-126. - https://doi.org/10.1207/s15326977ea1102_2

4. Abedi J. Psychometric issues in the ELL assessment and special education eligibility // Teachers College Record. - 2006. - Vol. 108, No. 11. - P. 2282-2303.

5. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. - Cambridge: Cambridge University Press, 2010. - 173 p. - ISBN 978-0-521-13021-9.

6. Martiniello M. Language and the performance of English-language learners in math word problems // Harvard Educational Review. - 2008. - Vol. 78, No. 2. - P. 333-368. - https://doi.org/10.17763/haer.78.2.70783570r1111t32